



ASHURALI ZOHIRIY PUBLITSISTIKASIDA TIL VA IMLO MASALALARINING YORITILISHI

Sayora Halimova Abdurahimovna
Media nazariyasi va amaliyoti kafedrası
dotsenti

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada jadid matbuotining yirik namoyandaligidan biri, muharrir va publitsist Ashurali Zohiriyning til va imlo xususidagi maqolalari tahlil etilgan. Publitsistning XX asr boshlarida chor mustamlakasi sharoitida o'zbek adabiy tilida yuz bergan o'zgarishlar va ona tilining millat o'zligini saqlab qolishdagi muhim ahamiyati doir ilg'or g'oyalari o'rganilgan.

Kalit so'zlar: til, ilmo, jadidlar, maorif, hifzi lison, publitsistika, lug'at, milliy matbuot, adabiyot.

Аннотация: В данной научной работе анализируются статьи одного из крупнейших представителей джадидской прессы, редактора и публициста Ашуралы Захири, языково-орфографического характера. Изучены идеи Захири, посвященные изменениям публицистического узбекского литературного языка в начале XX века в условиях царской колонии. Уделено важное значение сохранению национального достоинства родного языка.

Ключевые слова: язык, наука, история, образование, литературный язык, журналистика, словарь, национальная пресса, литература.

Annotation: This scientific work analyzes the articles of one of the largest representatives of the Jadid press, editor and publicist Ashurali Zahiri, according to linguistic and orthographic nature. In the conditions of the tsarist colony Zahiri's ideas on changes in the journalistic Uzbek literary language at the beginning of the twentieth century were studied. The main importance is regarded to preserving the national dignity of the native language.

Key words: language, science, history, education, literary language, journalism, dictionary, national press, literature.

Jadid ijtimoiy-siyosiy harakatining yetakchilaridan biri, tilshunos olim, pedagog, o'z davrining ilg'or fikrli publitsistlaridan biri Ashurali Zohiriy o'zbek jurnalistikasi rivojiga ham munosib hissa qo'shgan. Professor Boybo'ta Do'stqorayev "O'zbekiston jurnalistika tarixi" kitobida jadid matbuoti namoyandalari qatorida Ashurali Zohiriy hayoti va ijodiga, shuningdek, uning muharrir va publitsist sifatidagi faoliyatiga to'xtalib o'tgan¹. Olim mazkur kitobda publitsistning "Sadoi Farg'ona", "El bayrog'i" gazetalari va "Yurt" jurnalidagi faoliyati, Zohiriy tomonidan yozilgan dolzarb mavzulardagi qator maqolalari haqida so'z yuritadi. Ashurali Zohiriy 1910 yillardan

¹ Do'stqorayev B. O'zbekiston jurnalistikasi tarixi. -T: G'afur G'ulom. 2009. -B. 227.





boshlab Turkiston vaqtli matbuotida islom madaniyati, diniy axloq, yangicha ta'lim-tarbiya, til va imlo masalasi, milliy taraqqiyotga oid zamon ruhidagi maqolalari bilan qatnasha boshlagan. Jumladan, publitsistning 1914-1915 yillarda chop etilgan “Sadoi Farg‘ona” gazetasi 1-sonida “So‘z boshi” sarlavhali maqolasi bosilgan bo‘lib, unda til va imlo rivojida gazetaning muhim o‘rnini ko‘rsatib o‘tilgan. “Biz Rusiyadagi musulmonlar o‘rtasida o‘rtoq(mushtarak) bir til bilan bormoq yo‘llari necha yillardan beri muzokara va mushovara qilinmoqda bo‘lsa ham, hozirg‘acha bir qarorg‘a keling‘on yo‘qdur. Biz ham shu yo‘l bilan boriб маҳаллий шевада (ўзбек тилида) шул газетани чиқормоқина азми ҳиммат этдук”². Ashurali Zohiriy matbuotga teran nigoh bilan ta'rif beradi. Ya'ni uni yer yuziga, ona tabiatga mehr taftini beruvchi oftobga, ming dardga da'vo beruvchi shifokorga, insonni komillik sari yetaklovchi ilmu-ziyo maskani- dorulfununga qiyos etadi. Bundan tashqari, ma'rifat darg‘asining gazetaning 3-sonida “Ona tili” maqolasi e'lon qilingan³. Ma'lumki, chor hukumatining Turkistonni bosib olishi milliy ona tilimizga ham jiddiy zarar keltirgan. O‘zbek tilida arabcha, forscha so‘zlargina emas, totorcha, ruscha so‘zlar aralashib ketgan. Bu holat esa gazeta muharrirlarini ham qattiq tashvishga solgan. Ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan ona tilini asrab-avaylash kerakligini xalq ommasiga tushuntirish kerak va zarur bo‘lib qoldi. “Sadoi Turkiston” gazetasida bu borada ko‘tarilgan masalalar orasida o‘z ona tilini asrash - millatni asrash demakdir, degan yuksak g‘oya ilgari surilgan. Va gazetaning 1914 yil 28 may sonida Abdulla Avloniyning “Hifzi-lison” maqolasi e'lon qilinadi. Unga javoban “Sadoi Farg‘ona” gazetasida Ashurali Zohiriyning “Ona tili” maqolasi chop etilgan.”. gazeta va jurnallarning dunyo ahvolidan va boshqa to‘g‘rilarida xalqg‘a xabar berub turmog‘idan boshqa ulug‘ va ko‘zga ko‘rinmaydurg‘on bir foydasi bo‘lurki, ul ona tilining kengaymog‘i va mukammallashmog‘idir”⁴. Publitsist o‘z maqolasida o‘zbek adabiy tilining muhim ahamiyati haqida shunday deb yozadi: “Gazeta har millatni tarjimonidirki, bilmagon narsalarini bildirur va ham millatning muddaosini boshqalarga bildirur. Yana bir so‘z bilan aytilsa, gazeta har millatning tilidur, gazetasiz millat tilsizdur. Zero, tili va adabiyoti yo‘q millat, millat emasdur”⁵. Zohiriyning bu ilg‘or g‘oyalarini “Sadoi

² “Sadoi Farg‘ona” gazetasi, 1914 yil, 3 aprel.

³ “Sadoi Farg‘ona” gazetasi, 1914 yil, 13 aprel.

⁴ “Sadoi Farg‘ona” gazetasi, 1914 yil, 13 aprel.

⁵ “Sadoi Farg‘ona” gazetasi, 1914 yil, 13 aprel.





Turkiston” gazetasi o‘z sahifalarida qo‘llab-quvvatlagan. “Adabiyot va matbuoti lozimincha taraqqiy etgan bir millat bolasi ajnabiy tillarga hech muhtoj bo‘lmasdan o‘zining ona tili ila o‘qub olim bo‘la olur. Asl olim bo‘lmak uchun hech bir tilga ehtiyoj yo‘q. Bo‘lsa ham, milliy adabiyot va madaniyatning yo‘qligidan kelgan bir kasallikdir”. A.Zohiriy matbuot va adabiyotni millatning ko‘zgasiga qiyos etadi. “Har kimning dunyoda tirik turmog‘i uchun havo bilan suv qanday lozim bo‘lsa, har qavmning hayoti va saodati uchun ul millatning matbuoti va adabiyoti bo‘lmog‘i lozim”⁶. Xususan, Ashurali Zohiriyning “Til va imlo masalasi” maqolasida adabiy til haqida ilgari surgan qarashlari ko‘p jihatdan hozirgi o‘zbek adabiy tili qoidalariga mos keladi.Unda adabiy til xalq jonli tili zaminiga qurilishi zarurligi alohida ta'kidlangan. Imloni xalqchillashtirish - milliy til tabiatiga muvofiqlashtirish publitsistning asosiy maqsadi bo‘lgan. Shu bois, ham keyinchalik u “Imlo” lug‘atini yaratgan.Uning ushbu ishi o‘zbek tilida birinchi mukammal tarjima lug‘at sifatida o‘z davrining amaliy hamda ilmiy talablariga to‘liq javob bera olgan.Ashurali Zohiriy o‘z davrining taniqli tilshunos olimi sifatida Toshkentda 1921 yilda o‘tkazilgan Til-imlo qurultoyida, 1926 yilda Bokuda bo‘lib o‘tgan Turkiyot qurultoyida, 1927 yilda Samarqanda lotin alifboni qabul etishga bag‘ishlangan O‘rta Osiyo ilmiy anjumanlarida faol ishtirok etgan. Muallif “Na uchunki, ulomolarimizdan biri biror yerga xat yoki birovga bergan narsasini xotira daftariga yozsa, ona tilini ko‘yib fors tilida yozadurlar. Yosh o‘smirlarimiz bo‘lsalar o‘z yerlaridan birini ziyofatga chaqurib xat yozsalar ham, usmonlicha yoki totorcha yozadurlar, shoyadki, ona tiliga muhabbat va islohi onlardan bo‘lur edi”, -deb yozadi. O‘z davrining har qanday ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma‘rifiy muammolarini ko‘ra olgan va ularni baralla aytishdan xalqning ko‘zini ochishdan qo‘rqmagan adib ona tilining unutilishini millat fojiasi sifatida baholaydi. Zamona yoshlarining o‘z Ashurali Zohiriy milliy tilga bo‘lgan bunday e‘tiborsizlikning sababalari chuqur o‘rganar ekan, o‘zbek tilining nazariyasi, imlo qoidalari bo‘yicha kitoblar va darsliklarning yo‘qligiga ham alohida ahamiyat qaratadi. Jadid ma‘rifatparvari milliy tilga bo‘lgan bunday e‘tiborsizlikning sababalari chuqur o‘rganar ekan, o‘zbek tilining nazariyasi, imlo qoidalari bo‘yicha kitoblar va darsliklarning yo‘qligiga ham alohida ahamiyat qaratadi. U birinchilardan bo‘lib shu mashaqqatli ishga, ya'ni imlo nazariyasini yaratishga

⁶ Shu manba





kirishadi. “XX asrning boshlarida Turkistonda o‘zbek tilshunosligini rivojlantirish, maktablar uchun darsliklar yaratish, izchil ta’limni yo‘lga qo‘yish dolzarb masalalardan biriga aylangan va bu holat o‘zbek ma’rifatparvarlari tomonidan anglab yetilgan edi. Tilshunos milliy tilga bo‘lgan bunday e’tiborsizlikning sababalari chuqur o‘rganar ekan, o‘zbek tilining nazariyasi, imlo qoidalari bo‘yicha kitoblar va darsliklarning yo‘qligiga ham alohida ahamiyat qaratadi. U birinchilardan bo‘lib shu mashaqqatli ishga, ya’ni imlo nazariyasini yaratishga kirishadi. XX asrning boshlarida Turkistonda o‘zbek tilshunosligini rivojlantirish, maktablar uchun darsliklar yaratish, izchil ta’limni yo‘lga qo‘yish dolzarb masalalardan biriga aylangan va bu holat o‘zbek ma’rifatparvarlari tomonidan anglab yetilgan edi. Zohiriy ona tilining unutilishini millat fojiasi sifatida baholaydi. Uning milliy til taqdiri va uning atrofidagi muammolarga bag‘ishlangan maqolalari boshqa jadidchilik harakati namoyondalarini ham sergak torttirdi. “XX-asrning boshlariga kelib, ziyolilarimiz jamiyatda o‘zbek tiliga bo‘lgan munosabatning yomonlashib borayotganligi, hatto o‘zini millatning ilg‘or vakili deb hisoblaydigag kishilarning ham o‘z-ona tiliga nisbatan e’tiborsizligi, o‘z navbatida buning kelajakda ayanchli oqibatlar bilan yakun topishi mumkinligi to‘g‘risidagi tashvishli maqolalari bilan mahalliy matbuotda chiqishlar qilgan edilar”⁷. Publitsist milliy tilga bo‘lgan bunday e’tiborsizlikning sababalari chuqur o‘rganar ekan, o‘zbek tilining nazariyasi, imlo qoidalari bo‘yicha kitoblar va darsliklarning yo‘qligiga ham alohida ahamiyat qaratadi. U birinchilardan bo‘lib shu mashaqqatli ishga, ya’ni imlo nazariyasini yaratishga kirishadi. “XX asrning boshlarida Turkistonda o‘zbek tilshunosligini rivojlantirish, maktablar uchun darsliklar yaratish, izchil ta’limni yo‘lga qo‘yish dolzarb masalalardan biriga aylangan va bu holat o‘zbek ma’rifatparvarlari tomonidan anglab yetilgan edi. Xuddi shu sharoitda birinchilardan bo‘lib tilshunos olim Ashurali Zohiriy ona tili darsligi va turli o‘quv kitoblarini yaratdi. Ayniqsa, olim maktablarda ona tilida to‘g‘ri yozishni o‘rgatish uchun zarur darsliklar yo‘qligini inobatga olgan holda 1916 yilda o‘zbek tilida birinchi bor “Imlo” darsligini yaratdi. Boshlang‘ich maktablarning to‘rtinchi sinflari uchun mo‘ljallangan bu darslik o‘zbek adabiy tili qonun - qoidalarini belgilashda, tilning taraqqiyot yo‘nalishlarini aniqlashda tilshunoslar uchun tayanch qo‘llanma vazifasini o‘tadi”. Nazariy bilimlarsiz, qonun-qoidadarsiz til

⁷ Jo‘rayev J, Umarov A. “Qadimiy asarlarda xat yozish qoidalari”. Nutq madaniyati va o‘zbek tilshunosligining dolzarb muammolari. Imiy-amaliy anjuman materiallari –Andijon:. 2020. –B 10-11





poydevorsiz inshootga o'xshab qolishini yaxshi anglagan A.Zohiriy yoshlarni o'z tilida so'zlashmaslikda ayblashdan олдин, уларнинг қўлига китоб тутқазишни ўзининг бурчи деб билган . Chindan ham, o'z tilida xat yozmasliklariga sabab ular o'zbek tilida imlo bo'yicha mukammal bilimlarga ega emas edilar. Shuning uchun ham olim bu ishga astoydil kuch sarflaydi va "Imlo" kitobini yaratadi. Mazkur kitob nafaqat ajoyib darslik, balki ko'plab ilmiy muammolarning yechimiga ham sabab bo'ladi. "Ashurali Zohiriyning bu xizmatiga Abdurauf Fitrat "Sarf" kitobi (1924 yil)ning so'zboshisida yuksak baho bergan edi: "Milodiy 19 nchi mo'lcharning (asrning) so'nglarida bizda yangilashmoq (tajaddud) fikri uyg'andi. Yangi maktablar ochmoq, yangi kitoblar yozmoq, gazetalar, xatlar chiqarmoq istadik: ochdiq, yozdiq, biroq hanuz til, imlo masalalariga ochiq belgili bir yo'l bera olmag'an edik. Butun turk dunyosi uchun " bir yalpi til" qabul etmak xayollari bilan ovora bo'ldiq. Tilimizni shunga to'g'ri yurg'uzmoq uchun unumsiz tirishdik. Bu xayollarning ishka oshmag'anin bilgandan keyin o'z tilimizni, o'z imlomizni tushuna boshladiq. Bu yo'lda birinchi odimni qo'qonlik Ashurali Zohiriy otdi. Imlo bitik so'zini yozib chiqardi. Undan so'ngra Toshkentda "Chig'atoy gurungi" ochildi. "Gurung" til, imlo masalalari bilan teranroq mashg'ul bo'ldi"⁸ . "Ko'rinib turganidek, Fitrat A.Zohiriyning o'zbek imlosi va tili ustida ish olib borgan ilk tadqiqotchi sifatida e'tirof etgan. A.Zohiriyning "Imlo"si o'zbek orfografiyasi va punktuatsiyasi bo'yicha dastlabki ilmiy-metodik qo'llanmadir. Unda o'quvchilarning imlo va punktuatsiya qoidalarini o'rganish asnosida sintaksisga oid dastlabki ma'lumotlarni olishlari ham ko'zda tutilgan. Bu esa o'z navbatida olimning sintaksisni mustaqil bo'lim sifatida ajratishga va o'quvchilarning sintaksis haqida tushunchaga ega bo'lishlari uchun uringanidan dalolat beradi. Shuning uchun ham risolada sintaksis haqida yo'l-yo'lakay ma'lumot bergan. Ayni shu ma'lumotlar orasida kiritmalarga oid dastlabki fikrlarni uchratamiz. "Imlo"ning 3-qismi tinish belgilarining qo'llanishi qoidalariga bag'ishlangan bo'lib, "Xatlar orasida rioyasi lozim ishorat va vaqf alomatlari" deb sarlavha qo'yilgan. Muallif bu bo'limda tinish belgilarining yozuvda qo'llanishi va qanday holatlarda qo'yilishi haqida mulohaza yuritadi. Qavs belgisining xususiyatlarini bayon etish asnosida kiritmalar tabiatiga xos bo'lgan belgilar xususida ham to'xtaladi: "Ishorati" "()" (qavsayin yoki tafsir

⁸ Jamoliddinova D. Badiiy nutqda parantez birliklarning semantik-grammatik va lingvopoetik xususiyatlari. T.: 2009 y.-B.116.





ishorati) bir soʻzning ma'nosini soʻz orasida bayon qilgʻonda yoki soʻz orasida biror mazmuni eska tushurub ketmoqchi boʻlgʻonda, ikki chetiga qoʻyilur. Chunonchi, Arz (er) yumaloqdur. Johil (nodon) kishilarning suhbatini aqlni kamaytirur”⁹. A.Zohiriy birinchi boʻlib kiritmalarning xususiyatini yoritishga muvaffaq boʻlgan. Biroq “Imlo”da punktuatsiya masalasi xususida bahs yuritilgani bois kiritmalarga keng oʻrin berilmagan. Olimning tilshunoslik merosini oʻrgangan tadqiqotchi T.Togʻayevning ma'lumot berishicha¹⁰, olim sintaksisga oid darslik ham yaratgan, lekin turli sabablarga koʻra risola nashr etilmay qolgan. Bu davrda Ashurali Zohiriyning “Imlo”sidan boshqa darslik maydonga kelmadi. A.Zohiriy tomonidan “Maorif va oʻqitgʻuchi” jurnalining 1925 yil 11-12-sonida “Til va adabiyotimiz” maqolasi eʼlon qilingan. Publitsistik asarda oʻzbek tilida ingichkalik va qalinlik (singarmonizm) qoidasi toʻgʻrisida fikr yuritishda adabiy tilning tayanch dialektiga toʻxtalishga majbur boʻlgan va uni turk tilining umumiy ohangi deb, unga xayrixohlik bildiradi. Shu oʻrinda Ashurali Zohiriyning u yoki bu darajada adabiy tilda bu qoidadan chekinishga moyilligi borligi ham seziladi va bu haqda shunday deydi: “Tabiiy, har bir tilning ingichkalanish, fasih va ohangdor boʻlishi, yuksak ilmiy-adabiy bir darajaga erishishi oʻshal til egasi boʻlgan jamiyatning ilmiy-adabiy saviyasining koʻtarilishi va takomil sari yuz keltirishiga bogʻliqdir”¹¹. Olimning mazkur tadqiqotlardan koʻzlangan birdan-bir maqsadi – milliy tilni saqlab qolish, uni fan darajasida oʻrganishdan iborat boʻgan, desak xato boʻlmaydi. Uning “Qachonki, bir millat tilini yoʻqotsa, u oʻz dinini va millatini yoʻqotur”, degan soʻzlari esa ham fikrimizning dalili ham millatparvar olim maslagining mohiyatini ochib bera oladi. Ashurali Zohiriy oʻzbek tilshunosligi tarixida nafaqat imlo qoidalari asoschisi, balki ikki tilli lugʻatchilik borasida ham yetakchi olimlardan biri boʻlgan. “Oʻzbek ziyolilari orasidan ilk ruscha-oʻzbekcha tarjima lugʻati maʼrifatparvar jadid adibi Ashurali Zohiriy tomonidan yaratiladi. Ikki jilddan iborat mazkur lugʻat “Ruscha-oʻzbekcha mukammal lugʻat” deb nomlanib, 1927 yilda Toshkentda nashr etiladi. Ashurali Zohiriyning “Ruscha-oʻzbekcha mukammal lugʻat”i 34 ming soʻzni qamrab olgan, oʻz davrida til leksik qatlamiga katta tezlikda kirib kelayotgan ruscha oʻzlashmalarni lugʻatlarda qayd etish, maʼnosini izohlash, ularning

⁹ Shu manba

¹⁰ Togʻayev T.Ashurali Zohiriy va uning tilshunoslik merosi.Nodirabegim.-T:2021.-B.12.

¹¹ “Maorif va oʻqitgʻuvchi”jurnali, 1925 yil, 11-12 sonlar.





talaffuzi va yozilishini belgilashda muhim o'quv vositasi vazifasini o'tadi"¹². Bundan tashqari publitsistning "Hukumat o'zgarishi", "Milliy ishlar komissari Tojxo'ja afandining "Fiqha jamiyati"ga bergan savoli munosabati ila", "Imlo masalasi haqida ikkinchi turli mulohaza", "12-firqa qurultoyida millatlar masalasi", "O'tkanlarga bir qarash", "Bir yil to'ldi", "Olti oylik o'zbek adabiyoti (bosma so'zi)ga bir qarash", "O'zbeklar", "Turkiyot qurultoyi to'g'risida", "Kelurnoma", "Til va imlo masalasi" kabi ko'plab maqolalar yozgan. Ularda XX asrning eng dolzarb masalalari milliy til muhofazasi, zamonaviy ma'rifat va ta'lim-tarbiya, milliy o'zlikni anglash, shuningdek, olimning tilshunoslik, adabiy-tanqidiy qarashlari aks etgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Do'stqorayev B. O'zbekiston jurnalistikasi tarixi. -Darslik. -T.: G'.G'ulom nomidagi matbaa-nashriyot uyi. 2009.
2. Abduazizova N. O'zbekiston jurnalistikasi tarixi. -T.: Akademiya, 2002.
3. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. T.: Universitet. 1999
4. Tog'ayev T.M. Ashurali Zohiriy va uning tilshunoslik merosi. -T:
5. Nodirabegim nashriyoti. 2021.
6. Jamoliddinova D. Badiiy nutqda parantez birliklarning semantik-grammatik va lingvopoetik xususiyatlari. T.: 2009.
7. Normamatov S. O'zbek lug'atligining shakllanishi va rivojlanishida jadid ma'rifatparvarlarining o'rni. Filologiya fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. -T: 2019.
9. Jo'rayev J, Umarov A. "Qadimiy asarlarda xat yozish qoidalari". Nutq madaniyati va o'zbek tilshunosligining dolzarb muammolari. Ilmiy-amaliy anjuman materiallari -Andijon.: 2020.

¹² Bahriddinova B. O'zbek tilida dastlabki ikki tilli va me'yoriy o'quv lug'atlarning yaratilish tarixiga doir. Buxoro Davlat Universiteti ilmiy axboroti 2020/1 (77)

